

Date: 25<sup>th</sup> April-2025

**ZAMONAVIY OILALARDA ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY HIMoya MEXANIZMI**



**G‘ulom Xolmurodov**

O‘zbekiston Milliy Universiteti o‘qituvchisi

**Ismigul Salaydinova**

O‘zbekiston Milliy Universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy oilalarda xotin-qizlarga nisbatan sodir bo‘layotgan zo‘ravonlik holatlari ijtimoiy muammo sifatida yoritilgan xususan ayollarning ruhiy va jismoniy tazyiqlarga uchrashi, ularning jamiyatdagi faolligini pasaytirishi va insoniy huquqlarining poymol etilishiga sabab bo‘layotgani tahlil qilingan. Shuningdek ijtimoiy himoya tizimidagi mavjud mexanizmlarni tahlil qilib, ularning samaradorligi, mavjud bo‘shliqlari va takomillashtirish yo‘llarini ochib beradi. Shuningdek, maqolada huquqiy, psixologik va axborotiy yordam ko‘rsatishning dolzarbligi ta’kidlanib, gender tenglikni ta’minalash yo‘lidagi muhim takliflar ilgari surilgan. Jamiyatda ayollar xavfsizligi va ularning munosib hayot kechirish huquqini ta’minalash yo‘lida muhim nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** zo‘ravonlik, xotin-qizlar, ijtimoiy himoya, oila, gender tenglik, huquqiy mexanizmlar, psixologik yordam, ayollar huquqlari, zo‘ravonlikka qarshi kurashish.

Barchamizga ma’lumki, mamlakatimiz tarixida oila jamiyatning mustahkam poydevori, uni harakatga keltiruvchi qudratli ma’naviyat o‘chog‘i sifatida shakllanib kelgan. Oila – inson kamolotining eng muhim bo‘g‘ini, xalqimizning go‘zal urf-odatlari hamda qadriyatlarini o‘zida saqlaydigan muqaddas va mo‘jaz maskandir.

Shu sababli oilaviy munosabatlarning qonuniy asoslarda mustahkamlanishi va himoyalanishi har bir davlatning asosiy vazifalaridan biri sanaladi. O‘zbekiston Respublikasida oilani huquqiy jihatdan himoya qilishga alohida e’tibor qaratilib, bu borada bir qator qonunchilik hujjalari qabul qilingan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahrirdagi 58-moddasida quyidagicha belgilangan: “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minalaydi<sup>17</sup>”.

Ushbu modda mamlakatimizda gender tengligini, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqli ishtirokini ta’minalash, ularning oila va jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash yo‘lida konstitutsiyaviy kafolatdir.

Gender zo‘ravonlik – insonning jinsiga asoslangan holda amalga oshiriladigan zo‘ravonlikdir. Bu turdagи zo‘ravonlik ko‘pincha ayollar va qizlarga nisbatan sodir etiladi. Shakllari quyidagilardan iborat, ayollarni kamsitish, ularni ikkinchi darajali inson sifatida

<sup>17</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2023, –80 b.

Date: 25<sup>th</sup> April-2025



ko'rish, jinsiy tajovuz va zo'ravonlik; ish joyida gender asosidagi diskriminatsiya, majburiy turmush qurdirish yoki erta nikoh, ijtimoiy cheklovlari va iqtisodiy mustaqillikni bo'g'ish.

Gender zo'ravonlik nafaqat shaxsiy darajada, balki ijtimoiy va madaniy me'yorlar orqali ham qo'llab-quvvatlanishi mumkin, bu esa uni aniqlash va bartaraf etishni yanada murakkablashtiradi.

Rus olimi I. Shahov oilaviy zo'ravonlikni faqatgina oddiy janjal yoki ichki oila masalasi sifatida emas, balki jamiyat hayotiga tahdid soluvchi jiddiy ijtimoiy muammo sifatida baholaydi. Uning fikricha "Oiladagi zo'ravonlik – bu barqaror avj olish tendensiyasiga ega bo'lgan va takrorlanish ehtimoli yuqori bo'lgan xatti-harakatlar majmuasidir"<sup>18</sup>.

Bu yondashuvda e'tibor qaratilgan eng muhim jihatlardan biri – zo'ravonlikning bosqichma-bosqich kuchayib borishi va davriy takrorlanishidir. Ya'ni, dastlab oddiy og'zaki haqoratlar bilan boshlangan holat, vaqt o'tishi bilan jismoniy yoki jinsiy tazyiqlarga aylanib boradi. Bu jarayon tobora normal holatdek qabul qilinib, oilada yashovchi barcha a'zolarning – ayniqsa, bolalarning ruhiy va jismoniy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy oilalarda xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning ko'payishining bir qancha omillari mayjud, jumladan, iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar, shuningdek, gender tengsizliklari. Bu omillar birgalikda oiladagi zo'ravonlikni kuchaytirishi, ularni yanada murakkablashtirishi va kengaytirishi mumkin.

Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka uchrashning asosiy sabablari ko'plab ijtimoiy, psixologik, madaniy va huquqiy omillar bilan bog'liq. Ularni yanada kengroq yoritib beradigan bo'lsak, quyidagi sabablarga e'tibor qaratish mumkin<sup>19</sup>.

Psixolog L.Berkowitz "zo'ravonlik – bu boshqa shaxsga zarar etkazishga yoki zarar yetkazish ehtimoliga ega bo'lgan harakatlar, ularning har qanday shaklida va tashqi ko'rinishida, shu jumladan, jismoniy, ruhiy va iqtisodiy zararni o'z ichiga oladi"<sup>20</sup> deb bilgan.

D.P.Gil "Zo'ravonlik – bu odamlarning o'zaro nizolarni hal qilish uchun jismoniy kuch ishlاتishi, bu jarayonda bir tomonning boshqasiga nisbatan maqsadli zarar yetkazishi yoki tahdid qilishidir"<sup>21</sup>.

D.P.Gilning ta'rifida zo'ravonlikning maqsadga qaratilganligi, ya'ni boshqa shaxsga zarar yetkazish uchun qasddan amalga oshirilgan harakatlar sifatida ta'riflanadi. Bu ta'rif zo'ravonlikni yirik shaxslararo nizolar doirasida ko'rishga imkon beradi.

Hozigi kunda oilaviy zo'ravonlikning oqibatlari juda keng va chuqur alomatlar bilan bir-biridan farq qilmoqda. Ushbu oqibaltlar faqatgina zo'ravonlikka uchragan ayollar uchun emas, balki ularning farzandlari va jamiyatning o'zi uchun ham uzoq muddatli

<sup>18</sup> В.И.Шахов Насилие в семье: уголовно-правовое и криминологическое значение. // Автореф. дис. ...канд. юрид. наук. – Казань, 2003. С-36.

<sup>19</sup> Women, Race & Class by Angela Y. Davis (Author). Publisher: Vintage; First Edition 1983. P-288.

<sup>20</sup> L. Berkowitz, «Aggression: Its Causes, Consequences, and Control», 1993. P-276.

<sup>21</sup> D.P. Gil, «Violence and Crime in Cross-National Perspective», 2003. P-196.

Date: 25<sup>th</sup> April-2025

ta'sirlarga olib kelmoqda. Aynan ushubu xususiyatdan kelib chiqqan holda oilaviy zo'ravonlikning asosiy oqibatlarini quyidagicha guruhlashtirishimiz mumkin:

1-guruh, oilaviy zo'ravonlik qurbanib bo'lgan ayollar ko'plab jismoniy va ruhiy muammolarga duch keladi. Ular depressiya, xavotir, o'zini past baholash, psixologik travmalar va ba'zan jismoniy shikastlanishlarga olib keladigan holatlar bilan yuzlashadi. Bunday ayollar ko'pincha hayotdan qoniqmaslik, ijtimoiy izolyatsiya, va ba'zi hollarda, hatto o'z joniga qasd qilishga olib keladigan holatlarni boshdan kechirishi mumkin.

2-guruh, zo'ravonlikka guvoh bo'lgan bolalar yoki oilada zo'ravonlikka duchor bo'lgan farzandlar o'zlarining psixologik va emotsiyal holatida jiddiy o'zgarishlarga duch keladi. Ular ba'zan qo'rquv, xavotir, o'zini past baholash, agressiya yoki qo'rinchli xattiharakatlarni namoyon qilishi mumkin. Zo'ravonlikni guvoh qilish bolalarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va kelajakda o'zlarining oilalarida ham zo'ravonlik siklini takrorlash ehtimoli ortadi.

3-guruh, oilaviy zo'ravonlik jamiyatda ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazadi. Zo'ravonlikka duchor bo'lgan ayollar va bolalar ko'pincha jamiyatda kamroq ishtirok etadilar va ijtimoiy izolyatsiya bilan yashashadi. Bu jamiyatdagi ishslashga bo'lgan qobiliyatni kamaytiradi va sog'liqni saqlash, ta'llim va ijtimoiy xizmatlar sohalarida ortiqcha yuk yaratadi. Oilaviy zo'ravonlikni bartaraf etmaslik jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan, xalqaro miqyosda e'tirof etilgan qator me'yor va standartlar mavjud. Ushbu me'yorlar inson huquqlarini himoya qilish, gender tengligini ta'minlash va ayollarga nisbatan har qanday shakldagi zo'ravonlikka barham berish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, ko'plab davlatlar tomonidan tan olingen va amalga tatbiq etilmoqda.

1993-yilda Avstriyaning Vena shahrida bo'lib o'tgan Inson huquqlari bo'yicha Butunjahon konferensiyasi inson huquqlarini global darajada himoya qilishda tarixiy burilish yasadi. Ushbu konferensiyaning asosiy natijalaridan biri sifatida Vena deklaratsiyasi va harakat dasturi<sup>22</sup> qabul qilindi. Deklaratsiyada ilk bor ayollarga nisbatan zo'ravonlik inson huquqlarining jiddiy buzilishi sifatida e'tirof etildi. Konferensiyada ayollarga nisbatan zo'ravonlik faqat ijtimoiy muammo emas, balki butun jamiyat barqarorligiga tahdid soluvchi holat ekani ta'kidlandi.

"Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"<sup>23</sup>gi konvensiya 1979-yil 18-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan bo'lib, u 1981-yil 3-sentyabrdan kuchga kirgan. Ushbu konvensiya ayollarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi teng huquqlarini kafolatlashga qaratilgan.

"Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiyaning 3-moddasida esa ishtirokchi davlatlardan "...ayollarning erkaklar bilan

<sup>22</sup> United Nations General Assembly Vienna Declaration and Programme of Action  
<https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/vienna-declaration-and-programme-action>

<sup>23</sup> United Nations General Assembly resolution 34/180. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women New York, 18 December 1979. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-elimination-all-forms-discrimination-against-women>

Date: 25<sup>th</sup> April-2025



tenglik asosida inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan foydalanishini kafolatlash..." talabini qo'yadi. Bu huquqiy asoslarga ko'ra, zo'ravonlik faqat jinoyat emas, kamsitishning kuchli shakli sifatida baholanadi.

Davlat va fuqarolik jamiyati bugungu kunda oilaviy zo'ravonlikni bartaraf etish va uning oldini olish quyidagi chora-tadbirlarni amaga oshirsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashishda huquqiy yordam muhim ahamiyatga ega. Ayollar va farzandlar huquqlarini himoya qilish uchun qonunlar kuchaytirilishi, zo'ravonlikka qarshi jiddiy jazolar belgilanishi zarur. Yordamga muhtoj bo'lganlar uchun maxsus huquqiy yordam markazlari, telefon yordam liniyalari va urg'u berilgan adliya tizimi yaratish zarur.

Zo'ravonlik qurbanlariga psixologik yordam ko'rsatish juda muhimdir. Terapiya, psixologik maslahat va reabilitatsiya jarayonlari ayollarga ruhiy travmalarni yengish va o'zlarini tiklashga yordam beradi.

Jamoat va davlat ijtimoiy yordam tarmoqlarini kuchaytirishi zarur. Bunday yordam ayollarga ijtimoiy himoya, moliyaviy yordam, boshpana va kundalik hayotni qayta tiklash imkoniyatlarini taqdim etadi. Shuningdek, zo'ravonlikni oldini olish va bartaraf etish uchun jamoatning rolini kuchaytirish, jamiyatni oilaviy zo'ravonlik masalasida xabardor qilish va ta'lim berish kerak;

Hukumat va jamoat tashkilotlari birgalikda ishlashlari lozim. Zo'ravonlikka qarshi kurashishda hukumat qonunlarni yangilab, amaliyotga kiritishi, jamoat tashkilotlari esa o'z faoliyatini kengaytirib, qurbanlarga yordam berish tizimini rivojlan Tirishi kerak;

Oilaviy zo'ravonlikning oldini olish uchun yoshlarga oilaviy qadriyatlar, sog'lom munosabatlari va gender tenglik haqida ta'lim berish zarur. Oiladagi zo'ravonlikni bartaraf etish uchun jamiyatda zo'ravonlikning salbiy oqibatlari haqida keng ko'lamli ta'lim kompaniyalari tashkil etilishi kerak.

Oilaviy zo'ravonlikni oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etish uchun jamiyat, hukumat va ijtimoiy tizimlar birgalikda harakat qilishlari kerak. Ayollarni himoya qilish, ularning huquqlarini ta'minlash va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash jamiyatning barqarorligi va farovonligi uchun juda muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor"<sup>24</sup>. Ushbu so'zlar, oilaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, uni shakllantiruvchi qadriyatlarni yana bir bor tasdiqlaydi. Oila jamiyatning asosi bo'lib, uning mustahkamligi va farovonligi oilaning o'zgarishi va rivojlanishi bilan bevosita bog'liqidir.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar huquqlari, gender tenglikni ta'minlash va oilaviy farovonlikni oshirish borasida katta sa'y-harakatlar amalgalashirilmoqda. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, ular uchun turli soha va tarmoqlarda imkoniyatlarni kengaytirish, shuningdek, oilaviy

<sup>24</sup> Мирзиёев, Шавкат Миромонович. "Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишлиланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутк". /Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: «Ўзбекистон НМИУ», 2016. - 56 б.

Date: 25<sup>th</sup> April-2025

muammolarni hal qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xotin-qizlarni psixologik, tibbiy va ruhiy reabilitatsiya qilishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar kuchaytirilgan.

O'zbekiston oilalarida xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiysi xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular uchun huquqiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan bir qator o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritildi. Yangi Konstitutsiya xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularning teng huquqliliginini ta'minlash, shuningdek, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha muhim yondashuvlarni taqdim etadi<sup>25</sup>.

Konstitutsiyaning yangi tahririda xotin-qizlarning teng huquqliliginini kafolatlashga alohida e'tibor qaratilgan. Konstitutsiya xotin-qizlarga nisbatan jamiyatda teng huquqlilik prinsipini mustahkamlashni ta'minlaydi. Bu huquqiy kafolatlar, shuningdek, oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni himoya qilishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasi muddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida teng" huquqliliginini kafolatlaydi. Bu modda, asosan, jamiyatda jinsiy, irqiy, milliy, diniy, ijtimoiy kelib chiqish va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, barcha fuqarolarning huquq va erkinliklari tengligini ta'kidlaydi. Bu, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishda ham muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasi "davlatning asosiy maqsadi inson huquq va erkinliklarini ta'minlash ekanligini ta'kidlaydi". Bu modda, ayniqsa, xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish va ularning huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, 2024-yil 1-dekabrdan boshlab, bir kalendar yil davomida ikki va undan ortiq marta tazyiq yoki zo'ravonlik holati aniqlanganda, himoya orderi profilaktika inspektori tomonidan tashabbus tartibida rasmiylashtirilishi belgilandi. Bu esa profilaktik ishlarda proaktiv yondashuvga asoslangan yondashuvni mustahkamladi.

Mazkur chora-tadbirlar jamiyatda xotin-qizlarning xavfsizligini ta'minlash, ularning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan dolzarb yondashuvdir. Ular orqali davlatning insonparvar siyosati, gender tenglikni ta'minlash va oilani mustahkamlash borasidagi qat'iy pozitsiyasi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

2020-yil 4-yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>26</sup>gi 3-son qarori mamlakatda gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish yo'nalishidagi muhim hujjatlardan biridir. O'zbekiston Respublikasi ushbu qaror asosida tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni himoya qilishga qaratilgan maxsus tizim shakllantirildi. Mazkur tizim ichki ishlar organlari, mahalla fuqarolar yig'lnari, sog'liqni

<sup>25</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2023, -80 b.

<sup>26</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3-son qarori. 04.01.2020. <https://www.lex.uz/uz/docs/-4676892>

Date: 25<sup>th</sup> April-2025

saqlash va ta'lim muassasalari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtaida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish orqali samarali faoliyat olib borishni ko'zda tutadi.

2021-yil 24-oktyabrdan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Zo'rlik ishlatalishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish borasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"<sup>27</sup>gi 625-sonli qarori xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik oqibatlarini bartaraf etish, ularning ruhiy va ijtimoiy tiklanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim hujjatlardan biri hisoblanib, unda zo'ravonlikdan jabr ko'rgan ayollarga vaqtinchalik boshpana, bepul psixologik yordam, huquqiy maslahatlar, ijtimoiy moslashtirish, kasb-hunar o'rgatish xizmatlari ko'rsatish kabi vazifalarni o'z ichiga oldi.

Shuningdek qaror orqali o'z joniga qasd qilish xavfi mavjud bo'lgan xotin-qizlarni erta aniqlash, ularga tezkor va professional psixologik yordam ko'rsatish shu bilan birga, tegishli idoralar ichki ishlar, sog'lijni saqlash, ta'lim, mahalla tizimi va fuqarolik jamiyatni tashkilotlari o'zaro hamkorlikda ma'lumot almashish, birgalikda harakat rejasini amalgalashish va jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatishni tizimini tashkil etish, xotin-qizlarni yangi hayot boshlashiga, jamiyatda o'z o'rnini topishiga zamin yaratadi.

Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish, balki ularning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishda 2022-yil 7-martda Prezidentimiz tomonidan imzolangan PF-87-son "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>28</sup>gi farmonini ahamiyati juda katta hisoblanib, unda xotin-qizlarning huquqlari, qonuniy manfaatlari va sha'ni himoyasini kuchaytirish, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash va zo'ravonlik holatlarining oldini olish kabi maqsad qilib olinganligini ko'rshimiz mumkin.

Ushbu farmon asosida bugungi kunda xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan zo'ravonlik holatlarini erta aniqlashda mahalla, huquq-tartibot organlari, ta'lim va sog'lijni saqlash muassasalari, shuningdek, "Oila" ilmiy-amaliy markazi va boshqa tashkilotlar o'rtaida hamkorlik yo'lga qo'yish, "Ayollar daftari" orqali ehtiyojmand, muammoga duch kelgan ayollar alohida ro'yxatga olinib, ularga huquqiy, psixologik, moddiy yordam ko'rsatilmoqda.

Shu bilan birga, zo'ravonlikdan keyin ayollarni jamiyatga qayta moslashtirish, kasb-hunar o'rgatish, psixologik reabilitatsiya, ijtimoiy yordam xizmatlari orqali ularning mustaqil hayotga qaytishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Respublikamizda zo'ravonlikka uchragan ayol-qizlarga yordam ko'rsatuvchi turli tashkilotlar mavjud bo'lib, ular kerakli huquqiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordamlarni taqdim etadi.

Ayollarga nisbatan zo'ravonlikni bartaraf etishda yordam beradigan ba'zi tashkilotlarning aloqa raqamlariga:

<sup>27</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Zo'rlik ishlatalishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish borasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 625-son qarori. 24.10.2021. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5670659>

<sup>28</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son farmoni. 07.03.2022. <https://lex.uz/docs/-5899498>

Date: 25<sup>th</sup> April-2025

IIV Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish ishonch raqami: 1259  
Respublika zo'ravonlik qurbanlari reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazi:

1146

IIV Ishonch telefoni: 1102

IIV Xotin-qizlar bilan ishslash boshqarmasi: +998 (71) 256-14-18

Bu tashkilotlar zo'ravonlikka uchragan ayollarni himoya qilish va ularning huquqlarini ta'minlash, shuningdek, hayotini saqlab qolish uchun tezkor yordam ko'rsatishga tayyor. Agar biror kishi zo'ravonlikka uchragan bo'lsa, u ushbu raqamlarga murojaat qilib, zarur yordamni olishlari mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ”. /Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: «Ўзбекистон НМИУ, 2016. - 56 б.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2023, –80 b.
3. В.И.Шахов Насилие в семье: уголовно-правовое и криминологическое значение. // Автореф. дис. ...канд. юрид. наук. – Казань, 2003. С–36.
4. Women, Race & Class by Angela Y. Davis (Author). Publisher: Vintage; First Edition 1983. P-288.
5. L. Berkowitz, «Aggression: Its Causes, Consequences, and Control”, 1993. P-276.
6. D.P. Gil, «Violence and Crime in Cross-National Perspective», 2003. P-196.
7. United Nations General Assembly Vienna Declaration and Programme of Action <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/vienna-declaration-and-programme-action>
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 3-sen qarori. 04.01.2020. <https://www.lex.uz/uz/docs/-4676892>